

"O'zkimyosanoat" AJning 2026-yil 1-choragida tannarxni kamaytirish va mahalliyashtirish bo'yicha ko'rsatkichlari

// 23.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajning-2026-yil-1-choragida-tannarxni-kamayti>



Joriy yilning birinchi choragida "O'zkimyosanoat" AJ korxonalarida mahsulotlar tannarxini pasaytirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida izchil ishlar amalga oshirildi.

Xususan, yanvar-mart oylari davomida mahsulotlar tannarxi 194,4 mlrd so'mga kamaytirildi. Bu ko'rsatkich belgilangan rejaga nisbatan 111,7 foizni tashkil etdi. Erishilgan natijalar qator omillar hisobiga ta'minlandi. Jumladan, energiya resurslarini tejash orqali 24,8 mlrd so'm iqtisod qilindi. Buning natijasida 8,0 mln kub metr tabiiy gaz hamda 14,9 mln kVt/soat elektr energiyasi tejaldi.

Shuningdek, xomashyo va materiallar xarajatlarini optimallashtirish hisobidan 56,8 mlrd so'm, texnologik va boshqa yo'qotishlarni qisqartirish orqali 16,7 mlrd so'm tejankorlikka erishildi. Sanoat xodimlari sonini

maqbullashtirish 2,8 mlrd so'm iqtisod qilish imkonini berdi.

Xarid qilish, tashish va saqlash jarayonlarini samarali tashkil etish natijasida 4,0 mlrd so'm, boshqa turdagi xarajatlarni qisqartirish hisobiga esa 89,3 mlrd so'm mablag' tejaldi. Bundan tashqari, hisobot davrida mahalliyashtirish dasturlari doirasida ham muhim natijalar qayd etildi. Jami 29 ta loyiha asosida 1,54 trln so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mazkur ko'rsatkichlar tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.